


**TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2025- yil 1- dekabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

**I. Korxona va tashkilotlarning soni**

2025- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 45 974 tani tashkil etdi, shundan 39 815 tasi yoki 86,6 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024- yilning shu davriga nisbatan korxona va tashkilotlar soni o'sishi 106,0 % ni, jumladan kichik biznes va mikrofirmalarda – 107,3 % ni tashkil etdi.



Soni



Faoliyat ko'rsatayotganlarning o'tgan yilga nisbati % da



***Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga)***

| <b>Yillar</b> | <b>Korxonavatashkilotlar</b> | <i>shundan:</i>                     |                                     |
|---------------|------------------------------|-------------------------------------|-------------------------------------|
|               |                              | <b>tadbirkorlik<br/>subyektlari</b> | <b>kichikbiznes<br/>subyektlari</b> |
| <b>2025</b>   | 45 974                       | 40 194                              | 39 815                              |
| <b>2024</b>   | 43 232                       | 37 457                              | 37 102                              |
| <b>2023</b>   | 45 791                       | 40 288                              | 39 461                              |
| <b>2022</b>   | 55 222                       | 49 257                              | 48 915                              |
| <b>2021</b>   | 49 906                       | 44 113                              | 43 791                              |

Hududlar bo'yicha eng ko'p korxona va tashkilotlar Zangiota (*jami faoliyat ko'rsatayotganlarning 11,5 foizi*), Qibray (8,7%), Toshkent (7,0%), Parkent (6,2%) tumanlari va Chirchiq shahar (6,6%) hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Zangiota (12,3 %), Toshkent (7,3 %), Qibray (8,9%) Parkent (6,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi

| <b>Hududlar</b>    | <b>Korxona va<br/>tashkilotlar</b> | <i>shundan:</i>                 |                                  |
|--------------------|------------------------------------|---------------------------------|----------------------------------|
|                    |                                    | <b>tadbirkorlik subyektlari</b> | <b>Kichik biznes subyektlari</b> |
| Zangiota t.        | 5 280                              | 4 924                           | 4 887                            |
| Qibray t.          | 3 981                              | 3 563                           | 3 527                            |
| Toshkent t.        | 3 239                              | 2 937                           | 2 919                            |
| Chirchiq sh.       | 3 025                              | 2 664                           | 2 624                            |
| Parkent t.         | 2 858                              | 2 555                           | 2 541                            |
| Bo'stonliq t.      | 2 525                              | 2 164                           | 2 139                            |
| Angren sh.         | 2 459                              | 2 116                           | 2 083                            |
| Yuqori Chirchiq t. | 2 295                              | 2 024                           | 2 009                            |
| Yangiyo'l t.       | 2 180                              | 1 882                           | 1 864                            |
| O'rta Chirchiq t.  | 2 002                              | 1 759                           | 1 744                            |
| Olmaliqsh.         | 1 923                              | 1 668                           | 1 644                            |
| Yangiyo'l sh.      | 1 531                              | 1 353                           | 1 348                            |
| Bekobod sh.        | 1 468                              | 1 253                           | 1 243                            |
| Quyi Chirchiq t.   | 1 431                              | 1 218                           | 1 208                            |
| Bekobod t.         | 1 405                              | 1 166                           | 1 160                            |
| Ohangaron t.       | 1 343                              | 1 117                           | 1 100                            |
| Bo'ka t.           | 1 299                              | 1 082                           | 1 078                            |
| Chinoz t.          | 1 238                              | 1 008                           | 1 000                            |
| Oqqo'rg'on t.      | 1 173                              | 977                             | 972                              |
| Nurafshon sh.      | 1 166                              | 921                             | 907                              |
| Piskent t.         | 1 124                              | 925                             | 915                              |
| Ohangaron sh.      | 1 029                              | 918                             | 903                              |



### **Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Savdo tarmog'ida qolmoqda, uning ulushi 2025- yil 1- dekabr holatiga 33,1 foizni tashkil etdi.




Ikkinchi o'rinda, Boshqa turlar 22,4 foizni, uchinchi o'rinda Sanoat 14,6 foizni tashkil qildi. Ushbu uch turdagi iqtisodiy faoliyat turlari faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 70,1 foizini tashkil etdi.

| Iqtisodiy faoliyat turlari                         | Korxonavat ashkilotlar | shundan:                 |                          |
|----------------------------------------------------|------------------------|--------------------------|--------------------------|
|                                                    |                        | tadbirkorlik subyektlari | kichikbiznes subyektlari |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi           | 4 020                  | 3 973                    | 3 944                    |
| Sanoat                                             | 6 836                  | 6 823                    | 6 686                    |
| Qurilish                                           | 2 751                  | 2 734                    | 2 714                    |
| Savdo                                              | 15 510                 | 15 509                   | 15 445                   |
| Tashishvasaqlash                                   | 1 453                  | 1 450                    | 1 427                    |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 3 280                  | 3 267                    | 3 250                    |
| Axborotvaaloqa                                     | 784                    | 741                      | 736                      |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 927                    | 786                      | 769                      |
| Boshqa turlar                                      | 10 413                 | 4 911                    | 4 844                    |

## II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar (1- dekabr holatiga)

2025- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, 40 194 ta faol tijorat korxonalaridan 33 129 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlari bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi.

***Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (1- dekabr holatiga)***


| <b>Tashkiliy-huquqiy<br/>shakli</b> | <b>Tadbirkorlik<br/>subyektlarisoni (birlikda)</b> | <b>Tadbirkorlik subyektlarining<br/>jamiga nisbatani ulushi<br/>(% da)</b> |
|-------------------------------------|----------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|
| Mas'uliyati cheklangan jamiyat      | 33 129                                             | 82,4                                                                       |
| Xususiy korxonalar                  | 3 498                                              | 8,7                                                                        |
| Oilaviy korxonalar                  | 3 317                                              | 8,3                                                                        |
| Aksiyadorlik jamiyati               | 46                                                 | 0,1                                                                        |
| Boshqalar                           | 204                                                | 0,5                                                                        |

Shundan kelib chiqib, MCHJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

**III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**  
***(1- dekabr holatiga birlikda)***

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 2 330 ta korxonalardan 484 tasi qo'shma korxonalar va 1 846 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.





***Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ma'lumotlar***

2025- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024- yilning mos davriga nisbatan 520 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 644 tadan 890 taga (o'sish 246 taga), axborot va aloqa sohasida 66 tadan 119 taga (o'sish 53 taga) va qurilish sohasida 89 tadan 136 taga (o'sish 47 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

| <b>Iqtisodiy faoliyat<br/>turlari</b>                 | <b>Jami:</b> | <i>shundan:</i>            |                            |
|-------------------------------------------------------|--------------|----------------------------|----------------------------|
|                                                       |              | <b>qo'shma<br/>korxona</b> | <b>xorijiy<br/>korxona</b> |
| <b>Jami:</b>                                          | <b>2 330</b> | <b>484</b>                 | <b>1 846</b>               |
| Qishloq, o'rmon va<br>baliqchilik xo'jaligi           | 90           | 35                         | 55                         |
| Sanoat                                                | 816          | 246                        | 570                        |
| Qurilish                                              | 136          | 23                         | 113                        |
| Savdo                                                 | 890          | 93                         | 797                        |
| Tashishvasaqlash                                      | 39           | 10                         | 29                         |
| Yashash va ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar          | 40           | 7                          | 33                         |
| Axborotvaaloqa                                        | 119          | 3                          | 116                        |
| Sog'liqni saqlash va<br>ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 11           | 7                          | 4                          |
| Boshqaturlar                                          | 189          | 60                         | 129                        |

***Ayrim davlatlar kesimida foliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari  
ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (1- dekabr holatiga)***

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 1 033 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 44,3 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (9,4 %), Turkiya (10,3 %), Qozog'iston (4,1 %) va Janubiy Koreya (3,2 %) ham alohida o'rin egallaydi.

| <b>Davlatlar</b>        | <b>Jami:</b> | <i>shundan:</i>            |                            |
|-------------------------|--------------|----------------------------|----------------------------|
|                         |              | <b>qo'shma<br/>korxona</b> | <b>xorijiy<br/>korxona</b> |
| <b>Jami:</b>            | <b>2 330</b> | <b>484</b>                 | <b>1 846</b>               |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 1033         | 56                         | 977                        |
| Turkiya Respublikasi    | 241          | 18                         | 223                        |



|                             |     |     |     |
|-----------------------------|-----|-----|-----|
| Rossiya Federatsiyasi       | 219 | 36  | 183 |
| Qozog'iston Respublikasi    | 90  | 14  | 76  |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 66  | 14  | 52  |
| Afg'oniston                 | 40  | 1   | 39  |
| Tojikiston Respublikasi     | 34  | 1   | 33  |
| Birlashgan Arab Amirli      | 26  | 10  | 16  |
| Hindiston Respublikasi      | 21  | 5   | 16  |
| Amerika Qo'shma Shtatlari   | 19  | 4   | 15  |
| Pokiston Islom Respublikasi | 19  |     | 19  |
| Qirg'iziston Respublikasi   | 18  | 4   | 14  |
| Singapur Respublikasi       | 18  | 6   | 12  |
| Belorussiya Respublikasi    | 16  | 2   | 14  |
| Ozarbayjon Respublikasi     | 16  | 1   | 15  |
| Boshqa davlatlar            | 454 | 312 | 142 |

#### **IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar**

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentyabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri–real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Raqamlashtirish va statistik  
registrlarni yuritish bo'limi

**Ijrochi:**  
I. Boltayev  
71 203-45-00 (4560)

**Maznil:**  
100198, Toshkent v.,  
Toshkent yo'li ko'chasi, 90-uy